

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNING FONETIK TOMONLARINI

Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi

NamDPI 1-kurs talabasi

abdurashidovadilfuza4@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21157625>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning fonetik tomonlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va ahamiyati yoritilgan. bolalar nutqidagi tovush talaffuzi, fonematik eshitish qobiliyati hamda nutqiy nafasni shakllantirish masalalarini tahlil qiladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning fonetik kamchiliklarini bartaraf etish va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik metodlar hamda o'yin texnologiyalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, nutqning fonetik tomoni, tovush talaffuzi, fonematik idrok, nutqiy eshitish, didaktik o'yinlar, nutq o'stirish.

Abstract: This article discusses the specific features, patterns and importance of the development of the phonetic aspects of speech in preschool children. It analyzes the issues of sound pronunciation, phonemic hearing and speech breathing in children's speech. The article describes modern pedagogical methods and game technologies used in preschool educational organizations to eliminate phonetic deficiencies of students and prepare them for school education.

Keywords: preschool age, phonetic aspect of speech, sound pronunciation, phonemic perception, speech hearing, didactic games, speech development.

Аннотация: В данной статье рассматриваются специфические особенности, закономерности и значение развития фонетических аспектов речи у детей дошкольного возраста. Анализируются вопросы произношения звуков, фонемного слуха и речевого дыхания в речи детей. В статье описываются современные педагогические методы и игровые технологии, используемые в дошкольных образовательных организациях для устранения фонетических недостатков учащихся и подготовки их к школьному обучению.

Ключевые слова: дошкольный возраст, фонетический аспект речи, произношение звуков, фонемное восприятие, речевой слух, дидактические игры, развитие речи.

Shaxsning har tomonlama kamol topishida va ijtimoiy moslashuvida nutqning rivojlanganlik darajasi yetakchi o'rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshi bolaning nutq madaniyati, tovushlar tizimi va til qonuniyatlarini faol o'zlashtiradigan eng sezgir (sensitiv) davri hisoblanadi. Zero, bu davrda poydevori qo'yilgan to'g'ri nutq bolaning kelajakda maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashishini, o'qish va yozish ko'nikmalarini (savodxonlikni) xatosiz egallashini belgilab beradi.

Nutqning fonetik tomoni deganda nafaqat alohida tovushlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish, balki nutqiy nafas, sur‘at, ohang (intonatsiya), urg‘u hamda eng muhimi - fonematik eshitish (tovushlarni quloq orqali farqlash) qobiliyatlarining majmuasi tushuniladi. Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida nutqning fonetik va fonematik jihatdan yetarli shakllanmaganligi, tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar hamda nutqiy eshitishning zaifligi tez-tez kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat bolaning muloqotiga, balki uning ruhiy-intellektual rivojlanishiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammoni bartaraf etish maktabgacha ta‘lim pedagoglari va logopedlaridan dars jarayonlarida an‘anaviy usullardan qochib, bolalar psixologiyasiga mos keladigan zamonaviy interaktiv metodlar, didaktik va harakatli o‘yinlardan unumli foydalanishni talab etadi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning fonetik tomonlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi va nutqiy kamchiliklarni korreksiya qilish (tuzatish) bo‘ yicha samarali usullar tizimi taklif etiladi.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar nutqini o‘stirish metodikasi pedagogika fanining bir bo‘limi hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish metodikasi-pedagogik ilm-fan, pedagogik qonuniyatlarni o‘rganadi. Bolalar bog‘chasida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan ta‘lim va tarbiya uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. Bugungi kunda bolalar nutqini rivojlantirishning zamonaviy samarali vositalari, uslub va usullari bolalarda kerakli nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishlari uchun omil bo‘la oladi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishda quyidagi muhim vazifalar asos bo‘ladi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda nutq qobiliyatlari shakllanishida to‘g‘ri ta‘lim va tarbiya berish nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda foydalanish kerak, nazariya va amaliyotni qay usulda bo‘g‘lagan maqsadga muvofiq bo‘ladi. Albatta, uslubiy-nazariya uslubiy amaliyot bilan birgalikda rivojlanadi. Shaxsiy metodik qoidalarning to‘g‘riligi, hayotiyliigi amalda tekshiriladi. Maktabgacha ta‘limda bolalar nutqini shakllantirish, uni rivoji ustida ishlashda hali hal qilinmagan masalalar ko‘p. Buning uchun bolalar bog‘chasida o‘qish uchun tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bolalarda nutqni sezilarli o‘sishida mashg‘ulotlarni kalendar rejasiga aniq tavsiyalar berish kerak. Bolalar yoshiga qarab nutqni rivojlantirishning turli darajalariga ega bo‘lgan bolalar nutqini faollashtirish usullarini ishlab chiqish lozim. Uslubiy nazariyani yaxshi bilmagan tarbiyachi-pedagog bolalarni ko‘r-ko‘rona, faqatgina ularning taxminlar yoki boshqalarning tajribasini nusxalash bilan band bo‘ladi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar nutqni rivojlantirish maktabgacha ta‘limning boshqa faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Nutqni tushunish-bolaning shaxsiyatini rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri. Bolalar uchun har qanday pedagogik jarayonda boshqalar va ‘oz faol nutqlari zarur, nutq bolaning barcha faoliyatiga hamroh bo‘ladi

Bola har qanday faoliyatda o‘z lug‘atini rivojlantirishi kerak. Buning uchun nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish tinglash, javob berish, so‘rash, qobiliyati bilan bog‘liq faoliyatlar inobatga olinishi zarur. Nutqni rivojlantirish

metodikasi, barcha pedagogik fan kabi, ijtimoiy fanlarni nazarda tutadi. Sharqda ta’lim va tarbiya muammosi juda qadimdan beri mavjud.

U o’rta asrlardagi sharq mutafakkirlarining asarlarida ko’rib chiqilgan. O’sha davrlarning buyuk mutafakkirlari o’zlarining yirik asarlarida go’yoki kichik tuyulgan lekin muhim ahamiyat kasb etgan bolalar hayoti, ularning ta’lim tarbiyasi va nutq odobi haqida ham o’z fikrlarini bildirib o’tganlar. Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va boshqalar jahon fani, madaniyatiga beqiyos hissa qo’shdilar

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning fonetik tomonini shakllantirish - bu so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish, tovushlarni idrok etish va nutq apparatini rivojlantirish jarayonidir. Bu davrda bolalar tovushlarni aniq talaffuz qilishni va ularni bir-biridan farqlashni o’rganadilar.

Fonetik tomonning shakllanish bosqichlari ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishi yillar bo’yicha quyidagi xususiyatlarga ega:

3-4 yosh: Bolalar asosan unli tovushlarni va sodda undoshlarni to’g’ri talaffuz qiladi. “R”, “L” kabi murakkab undoshlarni va shivovchi tovushlarni (sh, ch, j) talaffuz etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi yoki ularni soddaroq tovushlarga almashtiradilar.

4-5 yosh: Artikulyatsiya apparati mustahkamlanib, til va lablarning harakati yaxshilanadi. Bu davrda tovushlarni noto’g’ri talaffuz qilish holatlari kamayadi. Murakkab tovushlarni o’zlashtirish jarayoni boshlanadi.

5-7 yosh: Nutqning fonetik tomoni to’liq shakllanib bo’ladi. Bola barcha tovushlarni aniq va ravon talaffuz qila oladi, so’zlarning urg’usini to’g’ri qo’yadi va ifodali nutqdan foydalana oladi. Bolalarda nutqning fonetik tomonini to’g’ri va tez shakllantirish uchun quyidagi mashq va usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

Artikulyatsiya mashqlari: Til va lab mushaklarini mustahkamlash uchun “Soat”, “Piching’I”, “Kasalxona” kabi oddiy va qiziqarli o’yinlar o’ynash.

Nafas mashqlari: To’g’ri nafas chiqarishni shakllantirish uchun qog’oz parchalari yoki sharchlarni puflash.

Tovushli o’yinlar: Qiyin so’zlar va tez aytishlar yordamida nutqni tiniqlashtirish, tovushlarni alohida cho’zib yoki aniq talaffuz qilishga o’rgatish orqali bolalarda juda yaxshi samara beradi. Ushbu jarayonda kattalar bolaga to’g’ri talaffuz namunasi bo’lishlari va xatolarni mehribonlik bilan to’g’rilab borishlari bolada nutqni shakllanishida va to’g’ri talaffuz qilishida juda ham muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Oribboyeva, D. D. "AQLI ZAIF BOLALARNI MEHNAT FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA VIZUAL VOSITALARNING O'RNI." *EDUCATION AND SCIENCE YESTERDAY AND TODAY* 3.3 (2026).

2.Abdurashidova, D. D. "The Impact of Cryptocurrencies on the Global Economy." *European Journal of Management, Economics and Business* 1.3 (2024): 201-205.

3. Abdurashidova, D. D. Akmaljon Qizi, and D. Oribboyeva. "Nutqida nuqsoni bor bolalarning psixologiyasi." *Science and Education* 6.10 (2025): 579-583.

4. Ayupova, M. Y. (2007). Logopediya. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti.